



“MA'RIFAT”
TARG'IBOTCHILAR JAMIYATI

“MA'RIFAT” TARG'IBOTCHILAR JAMIYATI

U S T A V I

RO'YXATDAN O'TKAZILDI

**O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi tomonidan
davlat ro'yxatidan o'tkazilgan**

29 март 2019 й

878

**Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat markazi
rahbarining**

**2019 yil "15" martdagi 11-sonli
buyrug'i(qaror)
bilan tasdiqlangan**

“MA'RIFAT” TARG'IBOTCHILAR JAMIYATI

U S T A V I

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati (bundan keyin matnda – Jamiyat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan, shuningdek, milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi qarorlari asosida fuqarolar ma’naviy olamini shakllantirishga xizmat qiladigan, ayni paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini muntazam ravishda olib boradi.

“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ta’sischi ligidagi nodavlat notijorat tashkilotdir.

1.2. Jamiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining qarorlari va ushbu Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

1.3. Jamiyat o‘z faoliyatini qonuniylik, oshkoralik va o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyillari asosida amalga oshiradi.

1.4. Jamiyat davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini olish va amalga oshirishi mumkin bo'lgan, o'z zimmasiga majburiyat olishi, sudda da'vogar yoki javobgar bo'lishi, mustaqil balansi yoki smetasiga, kredit muassasalarida so'mda va xorijiy valyutada hisob-kitob varag'iga va boshqa hisob raqamlariga ega bo'ladi.

Jamiyat tashkiliy-huquqiy shakli – muassasadir.

Jamiyat o'zining davlat tilida to'liq rasmiy nomi bitilgan aylana muhri, shtamp va maxsus blankalari, burchak shtampi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan ramziga ega bo'ladi.

1.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

1.6. Jamiyat Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uyda joylashgan.

1.7. Jamiyatning to'liq nomi:

davlat tilida – “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati

rus tilida – Общество проповандистов “Маърифат”

ingliz tilida – Propaganda society “Marifat”

Jamiyatning qisqartirilgan nomlanishi:

davlat tilida – MTJ

rus tilida – OPM

ingliz tilida – PSM

II. JAMIYATNING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining asosiy maqsadi – milliy ma’naviyatimizning ma’no-mohiyati, ildizlari, noyob va betakror namunalari, uning bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan izchil, ta’sirli va zamonaviy usul va vositalardan foydalangan holda targ‘ibot ishlarini olib borish; keng aholi vakillari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida vatanga muhabbat va sadoqat, fidoyilik, eng muhimi ularda daxldorlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy qadriyatlar, urf odatlar, muqaddas an’analarimizning hozirgi hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish; aholimizning ayniqsa, yoshlarimizning ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday ichki va tashqi tahdidlarga qarshi qaratilgan tizimli va zamonaviy tashviqot ishlarini olib borish.

2.2. Ushbu maqsaddan kelib chiqib Jamiyat quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish; dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlari, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; milliy g‘oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish, bunyodkorlik

jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish; targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish; yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish; ota-ona, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur, komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi va ongiga ta'sirchan vositalar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ'ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish; televideniye, radio, matbuot imkoniyatlaridan to'la foydalanib, turli mavzu va ko'rinishdagi ijtimoiy reklamalar tayyorlash, zamonamiz qahramonlari – yetakchi, ilg'or fikrli, barchaga o'rnak bo'lgan shaxslarning hayoti va faoliyati bilan ommani tanishtirish, ularning turli ijobiy tashabbuslarini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan illatlarni, ularning turli muammolarini dadil ko'tarib chiqish.

2.3. Yuqoridagi vazifalarni Jamiyat o'z faoliyatining tegishli chora-tadbirlar Dasturlari orqali amalga oshiradi.

III. JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Oila, ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar o'rtasida maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib tashkil etish, shuningdek, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug' aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi boshqa illatlarning barcha ko'rinishlariga qarshi keskin va murossasiz munosabatni shakllantirish, jamiyat uchun istiqbolli, zamonaviy targ'ibotchilarni tayyorlash maqsadida soha mutaxassislarini jalb etgan holda quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi:

“Jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyilidan kelib chiqqan holda terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'sirlari, narkobiznes kabi yurtimizning tinchligi va osoyishtaligiga raxna soladigan, xalqimizning iymon-e'tiqodiga zarar yetkazadigan har qanday yot g'oyalarga nisbatan ayovsiz kurashchan muhitni yaratish;

globalashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'paygan tahlikali, murakkab vaziyatda ma'naviyat sohasidagi ishlarni yuksak darajada takomillashtirish;

mamlakat ahli, ayniqsa, yosh avlodning dunyo va yurtimiz miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatini shakllantirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish;

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi va yil nomlari bilan bog'liq Davlat dasturlari ijrosi bilan bog'liq eng muhim ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish;
xalqaro maydonda yuz berayotgan muhim voqea-hodisalar, yon-atrofimizda kechayotgan jarayonlar mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, odamlarning faol mushohada yurituvchi va teran idrok etuvchi, ma'nan yetuk, siyosiy jihatdan faol fuqarolarga aylantirishga qaratilgan ma'rifat tizimini yaratish;
tinchlik, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi vazmin tashqi siyosat mohiyatini tushuntirish orqali xalqimiz dunyoqarashida milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish;
fuqarolik jamiyati, huquqiy davlatni rivojlantirish jarayonida barcha ijtimoiy guruh va tabaqalar vakillarining huquqiy ongini yuksaltirish vositasida vatandoshlarimiz qalbida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat hissini kuchaytirish, ayni paytda, o'zining fuqarolik huquqi, erkinliklari va burchini chuqur anglagan holda yashashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ko'maklashish.

IV. JAMIYATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Jamiyatning huquqlari quyidagilardan iborat: keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati faollari ro'yxatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish; Bo'lim va bo'linmalar tashkil qilish; milliy g'oya va mafkura nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlarni olib borish, targ'ibot ishlarini metodik ta'minlash, ilmiy ekspertiza o'tkazish, multimedia mahsulotlarini yaratish; ustav doirasidagi maqsad va vazifalarni bajarish yuzasidan shartnomalar imzolash, buyurtmalar berish, shartnoma asosida olimlar, ziyolilar, mutaxassislar, ko'pni ko'rgan, hayotiy tajribaga ega faol fuqarolarni jalb qilish, ish hajmini kelishish va ularga bajarilgan ishlar uchun kelishilgan narxlarda haq to'lash, targ'ibot materiallari bilan ta'minlash; Jamiyat o'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Jamiyatning majburiyatlari quyidagilardan iborat: qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish; o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash; o'z faoliyati yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga hisobotlar taqdim etish; Jamiyat qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

V. JAMIYAT RAHBAR ORGANLARI VA ULARNING VAKOLATLARI HAMDA TUZILMASI

5.1. Jamiyatning yuqori rahbar organi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (markaz rahbari) hisoblanadi. Jamiyat raisi Jamiyatning joriy faoliyatini olib boruvchi organ hisoblanadi.

5.2. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining vakolatlari: Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish; Jamiyatning ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; Jamiyat raisini besh yil muddatga tayinlash va lavozimidan ozod qilish; Jamiyat va uning bo'linmalari mol-mulkini tasarruf qilish bo'yicha qaror qabul qilish; Jamiyat va uning bo'linmalari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tasdiqlash; Jamiyatning hududiy bo'linmalarini tashkil qilish va ularni nizomlarini tasdiqlash.

5.3. Jamiyat raisining vakolatlari:

Jamiyatning umumiy faoliyatini tashkil etish va boshqarish; Jamiyat Ustavi va Dasturi doirasidagi umumiy faoliyatni muvofiqlashtirish; xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, delegatsiyalarni jo'natish va qabul qilish yuzasidan qarorlar qabul qilish; Jamiyat ishida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlar va jamoatchi targ'ibotchilarni O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga tavsiya etish hamda ularni o'z faxriy yorliqlari va pul mukofotlari bilan taqdirlash; Jamiyatni rivojlantirish jamg'armasini shakllantirish; hududiy bo'linmalarning rahbarlarini lavozimiga tayinlash va ozod qilish; Jamiyat nomidan bitimlarga imzo chekish; o'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan boshqa faoliyatlar olib borishi mumkin;

Jamiyat raisi bo'lmaganda uning vazifasini Jamiyat raisining o'rinbosari bajaradi.

5.4. Jamiyat tuzilmasiga uning hududiy bo'linmalari kiradi.

Hududiy bo'linmalarning huquq va majburiyati, mol-mulkini boshqarish bo'yicha bo'linma huquqlari ularning nizomida belgilanadi.

VI. JAMIYATNING MULK VA PUL MABLAG‘LARINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

6.1. Jamiyat o‘z tasarrufida binolar, inshootlar, uy-joylar, uskunalar, anjomlar, milliy va xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, intellektual mulk va mualliflik huquqlari obyektlari, tashkilot (korxonalar, muassasalar)larga va ushbu Ustavda ko‘zda tutilgan faoliyatni moddiy ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan va o‘z mablag‘lari hisobidan barpo etiladigan boshqa mol-mulkka ega bo‘lishi mumkin. Jamiyat mol-mulkinini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

muassisdan, qatnashchilardan bir marotaba va muntazam ravishda keladigan tushumlar; ixtiyoriy mulkiy badallar va ehsonlar; tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar; qonunlarda taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

VII. USTAVGA QO‘SHIMCHALAR VA O‘ZGARTISHLAR KIRITISH TARTIBI

7.1. Jamiyat Ustaviga Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi rahbari tomonidan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

7.2. O‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgandan so‘ng Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan belgilangan tartibda qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart.

VIII. JAMIYATDA HISOB VA HISOBOT ISHI

8.1. Jamiyat o‘z faoliyati natijalarini hisobga olib boradi va ularni belgilangan tartibda ro‘yxatga oluvchi, soliq va statistika organlariga taqdim etadi.

8.2. Jamiyat faollari mehnatiga haq to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.